



## NEYROPSIXOLINGVISTIKADA PSIXOANALIZ TA'LIMOT VA KOGNITIV DISONANS NAZARIYASINING O'RNI

*Bobokjalonov Ramazon Rajabovich*

*filologiya fanlari doktori, BuxDU professori*

*Sa'dullayeva Sug'diyona Vahobjon qizi*

*BuxDU iqtidorli talabasi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning yangi sohalaridan biri neyrolingvistika, unda psixoanaliz ta'limoti va kognitiv disonans nazariyasining nutq faoliyatida tutgan o'rni haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Neyropsixolingvistika Yangi O'zbekistonda inson qadrini ulug'lashda juda muhim sanaladi.

**Kalit so'zlar:** neyrolingvistika, psixoanaliz ta'limoti, kognitiv disonans nazariysi, ruhiy holat, nutqiy konfiguratsiya, nutq faoliyati, shaxs ruhiyati, psixik jarayon.

Jahon tilshunoslogida neyrolingvistika tom ma'noda insonlarni o'zini o'zgartirish mumkinligiga ishontiradigan yangi fan hisoblanadi. Bu fan o'tgan asrning ikkinchi yarmida ommalashdi va ilmiy fan sifatida shakllandi. Bir tomondan, neyropsixologiya, ikkinchi tomondan, tilshunoslik va psixolingvistikaning rivojlanishida to'qnashdi. Jaloliddin Rumi shunday degan ekanlar: « Insonlardagi go'zallik bu – yuzdir, yuzdagi go'zallik esa – ko'zdir. Ammo, insonni inson qilgan bu uning tilidan chiqadigan – so'zdir. » Lev Tolstoyning esa « Hamma dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi, lekin hech kim o'zini o'zgartirish haqida o'ylamaydi » - degan hikmatli gapi ham bizning mavzuimizga chin ma'noda aloqasi bor.

Luis-Jan Kalvet Sosyur ta'limoti haqida shunday ta'rif beradi: "Zamonaviy lingvistika davri Ferdinand de Sosyur nomi bilan tug'ildi va u nutq aktlari asosida mavhum bir model yaratdi. ... Blumfeld, Hmelslev yoki Xomskiy, bularning hammalari xuddi shu nazariyalarni va tizimlarni ishga tushirdilar, uning ta'limoti maydonini boyitib yangiladilar. Bu tizimni mavhum emasligini o'z kashfiyotlarida isbotladilar [Louis-Jean Calvet, 1993]." Andre Martinet Ferdinand de Sosyur qarashlaridagi muammolarni atroflicha kuzatib chiqib, shu bilan bir qatorda Lui Hmelslevning ishlarini ham: "Bir necha dolzarb savollargina Lui Hmelslevning e'tiboridan qochib qutildi, xolos [2 ; 3 ; 4 ; 7]," deb yuqori baholadi.

N. Xomskiy nutqning sintaktik tuzilishi darajasida xabarni tushunish tafakkurning chuqur semantik darajasida nutqni yozuvga aylantirish usuli, vositasi bo'lishini ta'kidlaydi [8]. G.A. Asonovanning fikricha: "Har qanday odamning nutqiy faollashuvi yoki har qanday nutqning buzilishida dasturiy-tizimiy ta'minot uchun nafaqat talabalarning grammatik qoidalarni bilishi, balki ularning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tilning muloqot o'yinida



ishtirok etishi – zarur [1].” Ko’rinadiki, neyrolingvistik, lingvokulturalogik va lingvopsixologik xususiyat va holatlar til o’rgatish jarayonida yangi innovatsion ilmiy yondashuvlarni talab etadi. Til o’qitish murakkab tuzilmaviy jarayon bo’lib, mashg’ulot jarayoni alohida interaktiv harakat, kreativlik, psixologik va adekvat yondashuv bilan bog’liqdir.

*Nemis mutafakkiri Zigmund Freyd “Ongsizlik psixologiyasi” kitobida inson ruhiyatini muz tog’iga qiyoslab tushuntirib berdi: “muz tog’ining ustki, ya’ni oltidan bir qismi ong bo’lsa, suv ostida ko’rinmay yotgan oltidan besh qismi ong ostidagi jarayonlardir, ya’ni ongsizlikdir [5].” Muz parchasini Freyd ong deb tasavvur qiladi. Bu – Freyd bo’yicha inson ruhiyati modeli. “Muz tog’ining ko’rib turgan qismi bizning ongimiz. Biroq suvning tagida muz tog’ining juda katta (6 barobar) qismi ko’rinmay yotibdi. Uning mana shu ko’rinmay yotgan qismi – bizdagi ongsizlik!” – deb baholaydi u.*

Ongli jarayonlarni ongsiz jarayonlar orqali o’rganish uning fikru-xayolini qamrab olgandi. Freyd bizda «yashirinib» yotgan psixologik jarayonlarni ongsiz jarayonlar deb atadi. Z. Freydning ta’biri bilan aytganda, ongdan siqib chiqarilgan odamning tabiiy instinktlari ong ostida qo’nim topadi. Ongsizlik tug’ma xususiyat bo’lib, insonning barcha hatti-harakatlarini ifodalab beradi [9]. Z. Freyd modeliga asosan, bir-biriga uzviy bog’liq bo’lgan 3 ta psixologik tuzilma – *id*, *ego* va *super-ego* ajratiladi.

«Id» — bu instinktlar. U ongdan xolis.

«Ego» — bu Men. Uning ongi bor.

«Super-ego», ya’ni Super-men — bu odamni o’rab turgan muhit, jamiyat.

Super-Men odamning xulq-atvorini «tepadan» nazorat qilib turadi.

Z. Freydning fikricha, evolyutsiyaning dastlabki bosqichida odamda o’z-o’zini saqlash, ya’ni ovqat izlash instinkti odamning xulq-atvorini belgilaydi, shu bilan parallel holda yoki biroz so’ng bu funktsiyani ko’payish instinkti bajarib boshlaydi. Freyd barcha biologik instinktlarni (himoya, ovqat izlash va ko’payish) bitta so’z bilan *Id* deb atagan.

«Id» doimo «men» va «super-men» bilan murosasiz jang olib boradi. «Id» kuchli quvvatga ega bo’lsa-da, «men» uni ong ostidan suzib chiqishiga yo’l qo’ymaydi. SHuning uchun ham «*id*» tajovuzkordir.

«Men» nazoratni to’la qo’lga olgunga qadar instinktlar go’yoki odamning hayot tarziga aylanadi. «Men» rivojlanishi odamning hayot tarzini o’zgartirib yuboradi va uning xulq-atvorini nazorat ostiga oladi. «Id» o’zgarmas, «men» esa rivojlanib va o’zgarib boradi.

Z. Freyd «men» va «*id*» orasidagi munosabatlarni chavandoz bilan ot orasidagi munosabatlarga qiyoslab ham tushuntirib bergan. Chavandoz otni o’zi boshqarsa-da, faqat uning quvvati hisobiga harakatlanadi. Kerak paytda chavandoz o’zanni qattiq ushlab otni to’xtatishi va o’zi xohlagan tomonga yo’naltira olishi zarur, aks holda u yiqilib qattiq jarohat oladi yoki halok bo’ladi. Ba’zi vaziyatlarda qachon to’xtash va qaysi tomonga yurish kerakligini chavandoz emas, balki otning o’zi tanlaydi. Masalan, chavandoz uxlab qoladi, charchaydi yoki kasallanadi.

«Men» (chavandoz) ning ahvoli «*id*» (ot) ning ahvoliga qaraganda biroz murakkabroq. CHunki, «men» bir tomondan atrof-muhit, ya’ni tashqi olamning qonun-qoidalariga amal qilishi kerak, ikkinchi tomondan kuchli ot («*id*») ni boshqarishi – kerak. «Men» ham tashqi olam, ya’ni «super-men» talablarini, ham «*id*» ehtiyojlarini qondirishi uchun doim xavotirda yashaydi. Bu talablarni bajarish uchun «men» doim sergak bo’lib turishi – kerak, bu talablar bajarilmasa,



aybdorlik hissi aynan “men” bo’yniga tushadi. Demak, «men» doimo o’zini himoya qilish yo’llarini izlaydi. Z. Freyd insonda nevroz rivojlanishini ushbu ziddiyatli munosabatlardan izlagan.

«Super-men» – barcha «men»lar yig’indisi. Hujayra organizmda hayot kechirgani kabi, organizm ham hujayrasiz yashay olmaydi. Organizm — bu «super-men». «Super-men» — bu jamiyat qonunlari, axloq printsiplari va din talablari. “Men” “Super-Men” talablariga bo’ysunib yashashi – kerak. Aks holda u halokatga uchraydi. Demak, bu 3 ta tuzilmadan “Men” ga og’ir. CHunki u bir tomondan “id” ni qoniqtirishi kerak, ikkinchi tomondan “Super-Men” talablariga amal qilishi – kerak. Freyd fikricha shuning uchun ham “Men” da nevroz rivojlanadi.

Psixoanalitiklar nevrozlarni psixoterapevtik yo’l bilan davolashda “Id”, “Men” va “Super-Men” orasidagi ziddiyatlarni kamaytirish yoki to’xtatishga harakat qilishadi.

*"O Dieu Tout-Puissant, Tu es le maître de nos esprits. Délivre-nous de cette connaissance et de cet art destructeurs de nos pères. ...*

*"Ey, Qodir Xudo, Sen bizning aql-ongimiz hukmdorisan, otalarimizning bu halokatli bilimlari va san`atlaridan bizni xalos et, bizning yagona ne`matimiz va baxtimiz bo'lgan, Sening oldingda eng qimmatbaho bo'lgan bilimsizligimiz, gunohsizligimiz va kambag'alligimizni bizga qaytar",*

*"Alceste : Suis-je ton ami ? En voilà plus ! .. Je dirai sans plus de mots : J'ai vraiment été ami avec toi jusqu'à maintenant, Mais, tu sais, je n'ai plus besoin d'un tel ami. Le bandeau est tombé de mes yeux : je t'ai reconnu tout à fait ; Je n'ai pas besoin d'une place dans les cœurs brisés [6].*

«Moliyer komediyalaridagi bosh mavzu – chin sevgiga qurilgan oila va uni asrash bo’lib, bu g’oya oddiy xalq vakili bo’lgan personajlar tilidan quyidagicha izohlanadi:

- kim sevsa, qoyadek qattiq bo’lishi – kerak;
- muhabbat – buyuk murabbiy;
- rashkchining muhabbati ko’proq nafratga o’xshaydi;
- sevgan insonning irodasiga bo’ysunish – muhabbatning eng oliy isbotidir;
- odamlar muhabbatdan masrurlanib, har safar aqlini yo’qotishadi;
- har bir odam sevadigan insoni tomonidan osonlikcha aldanishi mumkin;
- sevgida chidab bo’lmaydigan narsa bu – jimjitlikdir;
- go’zal ayolning barcha gunohlarini kechirish – mumkin;
- kim sevgini bilmabdi, demak, u dunyoga kelmabdi;
- sevgi barcha mangu narsalar orasida eng qisqa davom etadigan hodisadir;
- ayollar o’zlariga ko’proq sarf-xarajat qilganlarni yoqtiradi;
- aql muhabbatni boshqarmaydi;
- inson faqat harakatiga emas, balki harakatsizligiga ham javob beradi;
- taqdirlashning eng yaxshi uslubi – qo’lingizga nimanidir qistirishlari;
- tana qartayganda, axloq mustahkamlanadi;
- hasadgo’ylar o’ladi, ammo, hasad – hech qachon;
- grammatika hatto shohlarga ham amr beradi.

**Leon Festinger** birinchi bo’lib odamlarning ichki uyg’unlikka erishishga intilishlariga asoslangan kognitiv dissonans nazariyasini (1957) taklif qildi. U odamlarga o’z e’tiqodlari va



hatti-harakatlarining izchil bo'lishini ta'minlash uchun ichki ehtiyoj borligini taklif qildi. Qarama-qarshi yoki qarama-qarshi e'tiqodlar odamlarning oldini olishga intiladigan disarmoniyaga olib keladi.

Festinger tushuntirdi: "Kognitiv dissonansni, ochlik ochlikni kamaytirishga yo'naltirilgani kabi, dissonansni kamaytirishga qaratilgan faoliyatga olib keladigan oldingi holat sifatida qaralishi mumkin. Psixologlar bilan shug'ullanish uchun har xil motivatsiya, lekin biz ko'rib turganimizdek, kuchli [10]".

Kognitiv dissonans atamasi ikkita qarama-qarshi e'tiqod, qadriyatlar yoki munosabatlardan kelib chiqadigan ruhiy bezovtalikni tasvirlash uchun ishlatiladi. Odamlar o'z munosabatlari va idroklarida izchillikni izlaydilar, shuning uchun bu to'qnashuv ruhiy bezovtalikni keltirib chiqaradi.

Odamlar ishonadigan narsalar va ularning xulq-atvori o'rtasidagi nomuvofiqlik odamlarni noqulaylik hislarini kamaytirishga yordam beradigan harakatlarga undaydi. Odamlar bu taranglikni turli yo'llar bilan, masalan, rad etish, tushuntirish yoki yangi ma'lumotdan qochish orqali bartaraf etishga harakat qilishadi.

Hamma ma'lum darajada kognitiv dissonansni boshdan kechiradi. Insonning his-tuyg'ulari dissonans bilan bog'liq bo'lgan ba'zi belgilar:

- biror narsa qilishdan, qaror qabul qilishdan oldin o'zini noqulay his qilish ;
- qabul qilgan qaror yoki qilgan harakatni oqlashga urinish ;
- o'zini qilgan ishidan uyalish, o'z harakatlarini boshqa odamlardan yashirish ;
- o'tmishda qilgan xato uchun aybdorlik yoki pushaymonlikni tuyish ;
- ijtimoiy bosim yoki qo'rquvi tufayli biror narsa qilishga majbur bo'lish.

Kognitiv dissonansga sabablari:

- majburiy qoidalarga rioya qilish – o'z e'tiqodiga zid bo'lgan hatti-harakatlarga duch kelish tufayli ;

- yangi ma'lumotlarni o'rganish kognitiv dissonans tuyg'ulariga olib kelishi mumkin. Ba'zida odamlar o'z hatti-harakatlarini oqlash orqali zararli bo'lgan xulq-atvor bilan shug'ullanishadi.

- qarorlar – odamlar har kuni katta va kichik qarorlar qabul qilishadi. Ikkita o'xshash tanlovga duch kelganda, odamlarda ko'pincha dissonans hissi paydo bo'ladi, chunki ikkala variant ham bir xil darajada – jozibali. Biroq, tanlovdan so'ng, odamlar bu noqulaylik his-tuyg'ularini kamaytirish yo'lini topishi kerak.

- ta'sirchanlik – odamlarning dissonanslik darajasi bir necha xil omillarga bog'liq bo'lishi mumkin, shu jumladan ular ma'lum bir e'tiqodni qanchalik qadrlashi va ularning e'tiqodlari bir-biriga – mos kelmasligi.

Dissonansning umumiy kuchiga ta'sir qilishi omillar:

- 1) e'tiqodning ahamiyati ; 2) dissonant e'tiqodlar miqdori.

Kognitiv dissonans ko'pincha hatti-harakatlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu nafaqat his-tuyg'ularga ta'sir qiladi, balki noqulay his-tuyg'ularni kamaytirish uchun harakat qilishga ham undaydi. Kognitiv dissonans kuchli noqulaylik his qilishiga olib kelishi – mumkin. Bu noqulaylikni odamlar turli yo'llar – *Xavotir, Xijolat, Afsus, Uyat, Stress* bilan namoyon qilishi va sezishi – mumkin.



Dissonans odamlarning qanday harakat qilishida, fikrlashida va qaror qabul qilishida muhim rol o'ynaydi. Bilimlar (fikrlar, e'tiqodlar, fikrlar) o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'lganda, odamlar dissonans va noqulaylik hislarini kamaytirish choralarini ko'radilar. Ular buni turli yo'llar bilan bajarishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xarizmalı qobiliyatni uzoq vaqt davomiylikda saqlab qolish juda – qiyin. Buning uchun yengilmas iroda, katta tafakkur, yuksak mahorat, kuchli uddaburolik, ezigulik yo'lidan og'maslik, o'zligidan kechish va fidoyilik talab etiladi. Chunonchi, bunga faqatgina hind xalqi xaloskori Maxatma Gandi, o'zbek xalqining vatanparvarlik timsollari Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro va Alisher Navoiy kabilarni misol keltirish joizdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асонова Г.А. Грамматико-коммуникативные упражнения с элементами игры как способ активизации владения РКИ//Известия Южного Федерального университета. Филологические науки. – М., 2013 – 79. 2, 80.
2. Бобокалонов Р. Р. Неразрывная связь семиотики и нейропсихолингвистики в обучении иностранных языков: монография Lambert Academic Publishing, Chisinau-2068, Moldaviya. С. 138. ISBN : 978-620-4-72926-8.
3. Bobokolonov R. O'zbekcha-fransuzcha semantic-funksionalshakllangan gaplarning differentsiyasi va kommunikativ neyropsixolingvistika tadqiqi. Filol.fan. dokt. Dissert. Vuxoro, 2022, -3-284 b.
4. Бобокалонов Р. Р. Нуткий ҳосила, семиотик белги, дискурс ва нейропсихолингвистик ҳолат. Монография, GlobeEdit, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023234 с. ISBN 978-620-0-64729-0.
5. Берри, Рут. Зигмунд Фрейд. Путеводитель для начинающих. Жизнь и учение основателя психоанализа. — Гиппо, 2010. — 128 с. — ISBN 978-5-91606-003-4.
6. Жан-Батист Мольер. Мизантроп. Библиотека драматургии Агентства ФТМ «ФТМ», 1666. 2-14 с.
7. Lous Hjelmslev. Essais linguistiques. Arguments, les éditions de minuit. 1971. P. 7.
8. Хомский Н. Языки мышление. – М, 1972. – С. 126.6, P.79
9. Фрейд, Зигмунд. Основные психологические теории в психоанализе / пер. М. В. Вульф, А. А. Спектор. — М.: АСТ, 2006. — 400 с. — ISBN 5-17-036472-5.
10. Фестингер Л. Теория когнитивного диссонанса = A theory of cognitive dissonance. — СПб.: Ювента, 1999. — 318 с. — (Мастерская психологии и психотерапии). — ISBN 5-87399-129-4.